



THE MANUSCRIPT COPIES OF THE WORK ‘BAHR AL-FAVOID’ AND THEIR DESCRIPTION

Sarvar Mukhammadiyev
Independent Researcher
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hadith, Abu Bakr Kalobodi, Bahra-l-Favoid, Islamic scholarship, manuscript copies, comparative study, Islamic tradition, Hadith sciences.

Received: 15.02.25

Accepted: 17.02.25

Published: 19.02.25

Abstract: In the current complex era of rapid globalization, various sects, misguided groups, and terrorist organizations have attempted to misinterpret Hadiths to fit their own agendas, which poses potential risks to societal harmony. Similarly, certain sects and groups misinterpret Hadiths and fail to understand the original purpose of compiling them, leading to incorrect use of Hadith collections. In the modern context of Uzbekistan, efforts have started to study Hadiths based on scientific sources in a fair and objective manner. This involves examining the history of Hadith collections and their comparative study. Historically, the 3rd century Hijri (9th century CE) is considered the golden age of Hadith studies, with significant works accomplished in this field. Scholars of Hadith devotedly worked to preserve the teachings of the Prophet Muhammad (PBUH) and prevent the distortion or alteration of Hadiths. Each Hadith scholar developed their own unique methodology for compiling collections. Among the notable works, Abu Bakr Kalobodi's "Bahra-l-Favoid" stands out as an influential text widely studied in religious institutions and highly respected by scholars. The manuscript copies of "Bahra-l-Favoid" are crucial in understanding its historical and scholarly impact. These manuscripts have been preserved in various libraries and archives worldwide, with detailed studies about their content and preservation.

“BAHRA-L-FAVOID” ASARINING QO‘LYOZMA NUSXALARI VA ULARNING TAVSIFI

Sarvar Muxammadiyev
mustaqil tadqiqotchi
Farg‘ona Davlat Universiteti
Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Hadis, Abu Bakr Kalobodi, Bahra-l-Favoid, islomiy ilm, qo‘lyozma nusxalari, qiyosiy o‘rganish, islom an‘analari, hadis ilmi.

Annotatsiya: Hozirgi murakkab davrda, globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan bir vaqtda, turli firqa oqimlari, adashgan guruhlar va terrorchi tashkilotlar hadislarini o‘z maqsadlariga mos ravishda noto‘g‘ri talqin qilishga harakat qilmoqda, bu esa jamiyat hayotiga xavf tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, ba’zi oqimlar va guruhlar islom dini an‘naviy qarashlariga qarshi chiqib, hadislarini noto‘g‘ri talqin etmoqda va hadis to‘plamlarini yozishning asl maqsadini tushunmasdan ulardan xato foydalanishmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ilmiy manbalar asosida hadislarini ob‘ektiv va adolatli o‘rganish boshlandi. Bu hadis to‘plamlarining tarixini o‘rganish va ularni qiyosiy o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Tarixdan ma’lumki, hadis ilmi borasida 3-hijriy asr (IX asr) oltin davr hisoblanadi va o‘sha davrda juda katta ilmiy yutuqlar amalga oshirilgan. Hadis olimlari o‘zlarining samimiy sa’y-harakatlari bilan Payg‘ambar (s.a.v.) hadislarini saqlab qolish, ularni chalkashliklardan saqlashga erishdilar. Abu Bakr Kalobodiyning “Bahra-l-Favoid” asari ham o‘zining yirik ilmiy ahamiyatiga ega bo‘lib, dunyo bo‘ylab ko‘plab diniy ta’lim muassasalarida o‘qitilgan va olimlar orasida katta hurmatga sazovor bo‘lgan. “Bahra-l-Favoid” asarining qo‘lyozma nusxalari ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning saqlanayotgan kutubxonalar va muzeylar to‘plamlarida o‘rganilishi kerak.

РУКОПИСНЫЕ КОПИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “БАХР АЛЬ-ФАВОИД” И ИХ ОПИСАНИЕ

Сарвар Мухаммадиев
Независимый исследователь
Ферганского государственного университета
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: хадис, Абу Бакр Калободи, Бахра-ль-Фавоид, исламская наука, рукописи, сравнительное исследование, исламские традиции, наука хадисов.

Аннотация: В условиях современного сложного мира, когда процессы глобализации ускоряются, различные религиозные течения, заблуждающиеся группы и террористические организации пытаются неправильно интерпретировать хадисы в соответствии с их собственными целями, что может представлять угрозу для общественной жизни. Кроме того, некоторые течения и группы выступают против традиционных взглядов ислама и неправильно интерпретируют хадисы, не понимая истинных целей записи сборников хадисов и используя их неверно. В настоящее время в Узбекистане начали объективно и справедливо изучать хадисы на основе научных источников. Это требует изучения истории формирования хадисных сборников и их сравнительного анализа. Известно, что в третьем хиджрийском веке (IX век) исламская наука хадисов достигла золотого века, и в этот период было достигнуто множество значительных успехов. Учёные хадисов проделали огромную работу, проявив искренность в своей деятельности, и благодаря их трудам хадисы Пророка (с.а.в.) были сохранены и защищены от изменений и искажений. Работа Абу Бакра Калободия “Бахра-ль-Фавоид” является значимым научным трудом, который распространился по всему миру и преподавался в многочисленных религиозных учебных заведениях, а также снискал уважение среди ученых. Рукописи “Бахра-ль-Фавоид” имеют важное значение для научных исследований, и их хранение в библиотеках и музеях требует внимательного изучения.

KIRISH

Hozirgi murakkab, dunyoning globallashuv jarayonlari sur'ati oshib borayotgan bir davrda turli firqa oqimlar, adashgan guruhlar, terrorchi tashkilotlar turli shaxs va soha egalari tomonidan hadislarni noto'g'ri talqin etish o'z maqsadlariga mos ravishda hukm chiqarishga harakat qilishlari jamiyat hayoti uchun xavf tug'dirish ehtimolidan xoli emas. Shuningdek, turli oqim vakillari, guruhlar o'zlarining manfaatlari yo'lida islom dinining an'anaviy qarashlariga qarshi chiqib, hadislarni noxolis talqin etish va hadis to'plamlarining yozilish maqsadlarini to'g'ri anglamaslik oqibatida ulardan noto'g'ri foydalanishmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy manbalar asosida xolis va ob'yektiv ravishda hadislarini o'rganish tadqiq etish ishlari boshlandi. Bu hadis to'plamlari shakllanishi tarixini va ularni qiyosiy o'rganishni taqozo qiladi.

Tarixdan ma'lumki, hadis ilmi rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy IX) asrda hadis ilmi borasida juda katta muvaffaqiyatli ishlar amalga oshirilgan. Hadis ilmi musulmonlar uchun ahamiyatli bo'lgani sababli muhaddislar bu yo'lda o'zlarining samimiyligini namoyon qilib, tinmay mehnat qilib, o'z niyatlarini amalga oshirishdi. Natijada avlodlar uchun yaxshi o'rnak bo'lib, himmatlarining ulug'ligi va mehnatlarining samarasi bilan Payg'ambar (s.a.v.) hadislarini chalkashlik va o'zgarib ketishdan saqlashdi. Bu yo'lda har bir muhaddis o'ziga xos uslubi asosida to'plamlarini tuzishdi.

Abu Bakr Kalobodiyning asarlari, xususan, "Bahra-l-favoid" asarining dunyo bo'ylab keng tarqalgan, ko'plab diniy ta'lim muassasalarida darslik sifatida o'qitilgan, sohaning yetuk mutaxassisarlari kitob javonlarida Abu Bakr Kalobodiydek allomaning asari turishini o'zlari uchun sharaflab deb bilishgan.

Muhaddis olim asli Suriyalik, bugungi kunda Turkiyada yashab faoliyat olib borayotgan olim Shayx Muhammad Avvoma 2018 yil 21-22 sentyabr kunlari O'zbekistonda ziyorat turizmi loyihasi doirasida mehmon bo'ldi. U safarining bir ikki kunini Buxorodagi alloma mutafakkirlar qabrlarini ziyorat qilishga bag'ishlab, har bir qabrning ustida o'sha maqbarada dafn qilingan olimning asaridan bir qism dars berdi. Abu Bakr Kalobodiyning qabri ustida uning "At-Ta'arruf" va "Bahra-l-favoid" asarlaridan o'qib dars berdi va bu zotlarning oldidagi qarzni ado etmasakda shu bilan ularning ruhi poki oldidagi mas'uliyatni bir oz yengillatgan bo'linadi, – deb ta'kidladi. Bundan Muhammad Avvomaning olim bo'lishida ham Abu Bakr Kalobodiy asarlarining o'rni beqiyos ekani ko'rinadi.

"Bahra-l-favoid" asarining tanqidiy matni bugunga qadar ikki marta nashr etilgan. Birinchisi 1999 yilda Muhammad Hasan va Ahmad Farid Mazidiy tomonidan Bayrutda amalga oshirildi. Ushbu matn ayrim kamchiliklardan xoli emas. Jumladan, mo'jaza kirish qismida Abu Bakr Kalobodiyning tug'ilgan sanasi va ustozlari haqida ma'lumot uchramaydi. Shuningdek, "Bahra-l-favoid"ning qo'lyozma nusxalari, ular saqlanayotgan dunyo kutubxona fondlari, mazkur qo'lyozmalarning hajmi haqida ham so'z yuritilmagan. Ushbu ma'lumotlarning yo'qligini tanqidiy matn nashridagi asosiy kamchilik deb hisoblash mumkin.

Noshirlar Muhammad Hasan va Ahmad Farid Mazidiy asarga kirish qismini yozishda Hoji Xalifaning "Kashfa-z-zunun" asariga tayanishgan. Buning natijasida "Kashfa-z-zunun"dagi ayrim chalkashliklar kirish qismida aynan aks etgan. Abu Bakr Kalobodiy qalamiga mansub bo'lmagan asarning unga nisbat berilishi, vafot tarixining xato berilishi shular jumlasidandir.

“Bahra-l-favoid”ning ikkinchi nashri birinchisiga qaraganda mukammal holatda amalga oshirilgan. Noshir Vajih Kamoliddin Zakiy ushbu nashrni Qohira universitetida himoya qilgan magistrlik dissertatsiyasini asos qilib olgan holda amalga oshirgan. Ushbu ikki jildli tanqidiy matn Qohiradagi “Dora-s-salom” nashriyotida 2008 yilda dunyo yuzini koʻrgan.

Nashr avvalida biroz keng ilmiy-tadqiqot qismi oʻrin olgan boʻlib, u uch qismga boʻlingan. Birinchi qismda Abu Bakr Kalobodiyning hayoti, u yashagan davrdagi ilmiy muhit haqida soʻz boradi. Ikkinchi qismda “Bahra-l-favoid”ning Abu Bakr Kalobodiyga taalluqli masalasi muhokama qilinadi va mualliflik masalasi isbot qilinadi. Uchinchi qism bevosita “Bahra-l-favoid” hadislarining ilmiy tahliliga bagʻishlangan.

“Bahra-l-favoid”ning qoʻlyozma nusxalari haqidagi maʼlumotlar tahlili quyidagicha: Misrlik olim Vajih Kamoliddin Zakiy “Bahra-l-favoid” asarining dunyo kutubxonalari, muzeylari va manbalar xazinalarida saqlanayotgan oʻttizta nusxasini sanab oʻtadi:

1. Rizo Rambur (1/458) [M 3588 (883)] – 0324 varaq,
2. Toʻpqopi saroyi muzeyi (2/129) [A5382612] – (272 varaq) – 605 hijriy yil, (234 varaq, VIII asr), (150 varaq, 744- hijriy yil)
3. Joriyot (415) [H 747 (1368)] – (169 varaq) taxminan VII asr. Oʻrtasidan baʼzi varaqlari, oxiridan esa bir necha boʻlagi yoʻq.
4. Gʻoziy Xusrav (1/275) [4094] – (304 varaq) -VIII asr (hijriy).
5. Doru-l-ulumu-l-islamiyya (1/66) [354] – 803- hijriy yil.
6. Baladiyya / Iskandariya (Shindiy / Hadis 7[J 3179])(1 MJ-247 varaq) 1011 hijriy yil.
7. Ahmadiya /Halab (76) [(274) Hadis] – (286+18 varaq).
8. Doru-l-kutub /Qohira (1/92) [811] – avvali yoʻqolgan.
9. Shahid Ali Posho (32) [375] – (1 MJ – 267 varaq).
10. Fotih 41 [697] – (MJ 3071 varaq).
11. Fayzulloh Afandiy (T) (6) [Tartib soni 52] – (MJ 1).
12. Valiyyiddin (46) [844] – MJ1 (368 varaq).
13. Yani Jome (14) [244] (307 varaq) IX hijriy asr. Nomaʼlum shorih tomonidan «Sharhi maoni-l-axbor» unvoni ostida sharhlangan.
14. Parij (5855) (398 varaq 691- hijriy).
15. Baril, 2 bosma (747).
16. Yani (247) (“Maoni-l-ahodisi-l-mustofaviya va maboni-l-axbari-l-mujtabaviya” “Saralangan hadislarning maʼnolari va saylangan xabarlarning asoslari” unvoni ostida).
17. Domodzoda (610) (“Maoni-l-axbar” deb nomlangan “Bahra-l-favoid nomi ostida”).
18. Qohira (1/275) (“Maoni-l-axbor” deb nomlangan “Bahra-l-favoid nomi ostida”).

19. Dimashq Umaviyya (21:243) ("Miftahi maoni-l-axbor" "Xabarlarning ma'nosini ochuvchi" nomi ostida).
20. Rog'ib (311) (300 varaq, 1128 hijriy yil) ("Maoni-l-ahodisi-l-mustofaviya va maboni-l-axbaril mujtabaviya" "Saralangan hadislarining ma'nolari va saylangan xabarlarning asoslari" unvoni ostida).
21. Xolis (494), ("Maoni-l-ahodisi-l-mustofaviya va maboni-l-axbari-l-mujtabaviya" "Saralangan hadislarining ma'nolari va saylangan xabarlarning asoslari" nomi bilan).
22. Jorulloh (995) (100 varaq atrofida, 1111 hijriy) Uskudar.
23. Murod Mulla (610) (128, 1055 hijriy yil).
24. Jomea ktubxonasi, Istanbul (494) (151 varaq, 1083 hijriy yil).
25. Zohiriya (243 Hadis).
26. Valiyiddin (718) (332 varaq, IX hijriy asr).
27. Cherlili (128) (300 varaq atrofida, VIII hijriy yil).
28. Muhammad Buxoriy (1/94) (1 – 209 bet, 1111 hijriy yil).
29. Kastamonu (1398) (785 hijriy).
30. London Unverstiteti (19074). [1]

Misrlik olim Vajih Kamoliddin Zakiy "Bahra-l-favoid" asarini tahqiq etishda asos qilib olgan nusxalar asosan uchta bo'lib, ular quyidagilar:

Dastlabki nusxa: Doru-l-kutubu-l-Misriyya kutubxonasidagi qo'lyozmalar fondidagi nusxa bo'lib, u 811-raqam ostida saqlanmoqda. Mikrofilm 36704. Kitob "Bahra-l-favoid" shaklida nomlangan.

Ikkinchi nusxa: Iskandariyadagi Baladiya kutubxonasidagi nusxa bo'lib, "Bahra-l-favoidi-l-mashhur bimaoni-l-axbor" nomi ostida saqlanadi.

Uchinchi nusxa: Arabiy qo'lyozmalar instituti nusxasi bo'lib 379 raqam ostida saqlanmoqda. Kitob nomi "Maoni-l-axbor fi-l-hadis" "Hadisdagi xabarlarning ma'nolari" [1. 52].

Vajih Kamoliddin Zakiy "Bahra-l-favoid" asarini tahqiq qilishda asarning dunyo kutubxonalari, muzeylari va manbalar xazinalarida saqlanayotgan o'ttizta nusxasini ichidan asos va tayanch nusxa qilib uchta nusxani olganini bayon qilib, ularni bir-biridan o'zaro farqlarini ochib beradi. Mazkur uchchala nusxalarning ichidan ham eng to'liq va mukammalligi asos nusxa qilib oladi.

Quyida ularni tavsifini bayon qilinadi:

Yuqoridagilarni batafsil aytilsa, avvalgi nusxa Doru-l-kutubu-l-Misriyya kutubxonasidagi qo'lyozmalar fondidagi nusxa bo'lib, u 811-hadis bo'limi ostida saqlab kelinmoqda. Mikrofilm raqami 36704.

Bu nusxani qo'lyozma qismlar ichidagi uchta to'liq nusxalar ichidan asos nusxa qilib tanlab olindi. Ular: a) 2346 raqam ostidagi hadis bo'limi, 12355 raqamdagi Mikrofilm.

b) 811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm.

c) 811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 3474 raqamdagi Mikrofilm.

Zero bu nusxa (811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm) qolgan ikki nusxadan ancha asldir [1. 52].

Vajih Kamoliddin Zakiy "Bahra-l-favoid" asarini tahqiq qilishda yuqorida bayon qilingan uchta nusxadan "811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm" nusxasini eng asosiy nusxa qilib oladi. Quyida aynan nega "811-raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm" bu nusxa qolganlardan afzal ekani aytiladi.

Avvalgi nusxa (2346 raqam ostidagi hadis bo'limi, 12355 raqamdagi Mikrofilm) ikkinchi nusxadan (811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm) yozuvi ancha to'liq. Uchunchi nusxa esa (811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 3474 raqamdagi Mikrofilm), ikkinchi nusxadan (811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm) ko'rinish jihatdan mukammalroq.

Shunga binoan Doru-l -kutubu-l-Misriyya kutubxonasidan suyanish mumkin bo'lgan to'liq, mukammal nusxani e'tiborga olindi. U bitta nusxa bo'lib, u ikkinchi nusxa (811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm)da saqlanayotgan nusxadir [1. 5].

Yuqorida o'tgan asoslarga binoan (811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm) ostidagi nusxa asos va tayanch nusxa qilib olinadi.

Vajih Kamoliddin Zakiy quyida har bir nusxani alohida tavsiflab bayon qiladi. Dastavval asos bo'lgan (811 raqam ostidagi hadis bo'limi, 36704 raqamdagi Mikrofilm) ostidagi nusxani tavsifiga kirishadi.

Bu nusxaning holati ancha yaxshi saqlangan bo'lib, lekin, unda eskirish o'rinlari va ta'mirtalab joylari bor. Bu nusxa eski xatda yozilgan bo'lib, lekin u ravshan, o'qisa bo'ladi, ya'ni o'qish imkoni bor. Uni Ibrohim ibn Ali ibn Ahmad ibn Ibrohim yozgan. Bu nusxani Ibrohim ibn Ali hijriy 741 yil Jumadu-l-avval oyining o'n to'rtinchi sanasida nihoyalagan. Bu nusxa varaqlarining adadi 380 varaq bo'lib, nusxaning har bir sahifasi 17 qatordan iborat. Nusxa betlarining o'lchami 27.8x19.7 sm. o'lchamni tashkil qiladi. Nusxaning ustida yorqin g'ilofi bo'lib, uning ustiga "Bahra-l-favoid" deb yozilgan. Muallifning ismi Shayx Abu Bakr Muhammad Kalobodiy bo'lib, nusxaning ustiga "Bu nusxa ulug' Sulton uchun vaqf" deb

yoʻzilgan. Nuxxani koʻchiruvchi Ibrohim ibn Ali bu nuxxani yozishda Abu Bakr Muhammad Kalobodiy oʻzi eshitgan hadislarini shayxlaridan boshlab, shayxlarini sakkiztagacha yetkazadi. Bu shayxlarning ismlarini keltirishda kotib aytadiki, “Agar malollanish boʻlmasa edi eshitgan shayxlarini koʻplab keltirar edim”, – deydi. Bu nuxxaning 109-betining oxiridan bir parchasi yoʻq boʻlib, uni Iskandariya shahridagi Baladiya kutubxonasidagi nuxxasining betlaridan tahqiq chogʻida toʻldirildi. Hamda mazkur nuxxaning 129-betning oxiridan ham maʼlum qismi yoʻq. Uni ham Iskandariya shahridagi Baladiya kutubxonasidagi nuxxaning boshqa betlaridan toʻldirildi. Shu bilan birga, mazkur nuxxaning 230-betining soʻngi qatoridan uch qismi yoʻq boʻlib, uni Halafdagi Ahmadiya madrasasidagi nuxxalarining sakkizta betidan olib toʻldirildi [1. 53].

Shu sabablarga koʻra bu nuxxa asos qilib olingan. Nuxxa qolgan nuxxalardan ancha yaxshi saqlangan va hajmi jihatdan ham toʻliq. Vajih Kamoliddin Zakiy mazkur nuxxada keltirilgan qoʻshimchalar ham borligini eslatish maqsadida quyidagilarni aytib oʻtadi:

Bu nuxxada izohlar oz. Lekin izohlarni asosini quyidagilar tashkil etadi: hadislarini sahihligini bayon qilish yoki tushub qolgan oʻrinlariga sahih belgisini qoʻyish; boshqa nuxxadagi baʼzi bir farqlarni aytish; boshqa nuxxada nuxxa koʻchiruvchi kotiblar faqat unga “X” belgisini qoʻyish bilan cheklangan nuxxalardagi farqlarni zikr qilish; forsiy lugʻatdagi ayrim nodir soʻzlarni izohlash.

Bu nuxxani koʻchiruvchi Abul Hasan Ali Muhammad ibn Ali ibn Husayn Saʼdiy hadislarini baʼzisini nihoyasida ayrim sheʼrlarni aytib oʻtgan yoki qisman izoh qoldirgan. Har birida Abul Hasan “Alloh unga chiroyli muomila qilsin”, degan soʻzlarni kiritib ketgan. Yaʼni bu ishi bilan Abul Hasan Ali ibn Muhammad oʻzi kiritgan joylarni aytib oʻtgan, musannifning soʻzidan oʻzining soʻzini ajratishni istab, oʻzi kiritgan izohlarni alohida qilib ketgan. Baʼzi oʻrinda ayrim hadislariga ozgina idroj qilingan oʻrinlari ham bor. Lekin, shu idrojlarni boshqa nuxxaalarda koʻrilmadi. Balki, bu idrojlar Abul Hasan tomonidan qilingan boʻlib, bu soʻzni qolgan ikki nuxxa bundan holi ekanini taʼkidlab keladi [1.53].

Vajih Kamoliddin Zakiy “Bahra-l-favoid” asarini tahqiqi vaqtida asarga nuxxa koʻchiruvchi kotiblar tarafidan kirib qolgan, asarning asosiy matni boʻlmagan soʻzlarni ajratib bayon qilib keltirganini koʻrish mumkin. Darhaqiqat bu ish asar matnini asl holida saqlanishiga katta xizmat qiladi.

Vajih Kamoliddin Zakiy qoʻlyozma nuxxa asarni ichki tavsifiga kirishib, shulardan eng asosiylarini bayon qiladi.

Varaqlarning chap betining yuqori qismida ayrim izohlar boʻlib, ular har bir oʻng varaqda takrorlanib keladi. Izohning oʻzi esa, kitobda zikr qilingan kurrosalarning raqamini kiritilishdan

iborat. Kurrosa – har bir o‘n varoqqa qo‘yiladigan belgi. Mana shulardan ma’lum bo‘ladiki, musannif kitobini bir necha kurrosalarga taqsimlagan. Avvalda aytib o‘tilgan tushub qolgan yerlar kitobning uchta kurrosasini tashkil qiladi. Bu nusxa kitobning avvalidan oxirigacha keltirilgan hadislar adadini keltirish bilan nihoyasiga yetadi. Kitobda zikr qilingan hadislar soni 223 ta to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilgan hadislar bo‘lib, 370 ta hadis esa ularga shavohiddir. Natijada, hadislarining umumiy soni 592 ta hadisni tashkil qiladi, lekin, boshqa hadisni iborasidan avval keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitilgan hadislarini hisoblab chiqilganidan keyin ma’lum bo‘ldiki, ularning soni 219 taga yetadi. Musannif aytgan adadni to‘ldiruvchi uchlik hadislarini esa, oldingi hadislarini sharhlarini ichida keltirilganini ko‘rish mumkin. Bu uchlik hadislar qolgan ikkita nusxani boshqa hadislar iborasi bilan alohida keltirilgan. Bu hadislarini olishda boshqa hadislar iborasini qo‘shib keltirildi. Ana shularga xos yerda eslatma va ishoralar qo‘yib ketildi [1. 53].

Vajih Kamoliddin Zakiy qo‘lyozma nusxa asarni ichki tavsifida asos qilib olingan nusxadagi kamchiliklarni tayanch nusxalardan to‘ldirganini aytmoqda. Bu esa kitobni mukammal qiladi.

Nusxaning nihoyasida nusxaning itmomi keltirib o‘tilgan, nusxaning nihoyasiga yetishligi keltirib o‘tilgan hamda nusxa ko‘chiruvchi nosix kotibning ismi keltirilgan bo‘lib, u Ibrohim ibn Ali Ahmad ibn Ibrohimdir. Nusxaning nihoyalashlik sanasi hijriy 741 yil jumadu-l-ulo oyining o‘n to‘rtinchi kuniga to‘g‘ri keldi.

Vajih Kamoliddin Zakiy qo‘lyozma nusxalarni tayanch nusxalarni tavsifiga kirishib, ularni farqlarini sanab o‘tadi.

Ikkinchi nusxa Iskandariya shahridagi Baladiya kutubxonasida saqlanayotgan nusxa bo‘lib, u (J.3179 hadis bo‘limi) ostida. U “Doru-l-kutubu-l-Misriya nusxasidan varaqlarini adadi, yozilish tarixi va xat turi, nusxadagi hadislarini joylashish tartibi hamda Doru-l-kutub nusxasidan tushub qolgan o‘rinlar taqqoslangan joylardagi nihoyasi jihatidan farq qiladi. Shuning uchun ham ikkinchi nusxani tahqiq ishida ikkinchi asos qilib olindi.

Nusxaning saqlanish holati yaxshi bo‘lib, forsiy xatida bitilgan. Uni mudarris Murtazo ibn Yusuf ibn Muhammad ibn Ali Balaviy yozgan. Nusxani ko‘chirishdan hijriy 1011-yilning safar oyini oxirida nihoyasiga yetkazgan. Varaqlarini adadi 151 varaq bo‘lib, betining xat qatorlari esa, 21 qator. Nusxaning betini o‘lchami 15×22 sm.dan iborat. Nusxa ustida muqova g‘ilof bo‘lib, nusxaning bayonotini ochiq ravshan ko‘rsatib, ochib beradi. Kitobning nomi g‘ilof yuzasida bitilganidek «Bahra-l-favoidil mashhur bimaoni-l-axbor». Muallifning ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ibrohim Kalobodiy Buxoriy bo‘lib, hijriy 380 yilda vafot etgan. Mazkur nusxa kitobning ma’lum juzida keltirilgan hadislarini mundarija qismidan tashkil topgan ikki varaqli

qo'shimcha ma'lumot bilan boshlanadi. Ushbu varaqlarni birinchisini o'ng betini pastki yarim qismidan ayrim ko'rinishlari yo'qolgan. Bu qo'shimcha ma'lumotli ikki varaqdan keyin kitob hech qanday shayxlarga bog'lanmasdan yoki muvafaqot qilinmasdan boshlanadi. Lekin shunday bo'lsada, kitob nusxani egasi Muhammad ibn Muhammad Katbiyni keltirish bilan, nusxa ko'chiruvchi nosix kotibni ismi, nusxani nihoyasiga yetkazgan sanasini keltirish bilan nihoyalangan. Ushbu nusxada nusxa ko'chiruvchi tomonidan ba'zi izohlar keltirilgan bo'lib, ular ayrim kalimalarni sharhi borasida aylanadi. Ma'lum bo'lishicha, mazkur so'zlar Imom Roziyni "Muxtoru-s-sihoh" asaridan olingan. Har gal ularga "Sod" harfi bilan ishora qilib o'tadi. Hadislar roviylarini nasablari borasidagi ma'lumotlar esa, menga ular Sam'oniy "Kitabu-l-ansob" asaridan ekanini ochib berdi. Ularga "Sod va H" harflari bilan belgi qo'ygan. Mazkur nusxada imloviy xatolar ko'p bo'lib, ba'zi o'rinlarda ma'noni tamoman o'zgartirib yuborishgacha boradi. Ana shunday misollardan biri birinchi nusxani 25-betidagi: "Bir kishi Nabiyy (s.a.v.)ga: "Men haqiqatda sizni yaxshi ko'raman", – deb boshlangan hadisda ko'riladi. U "Men sizni haqiqatda yaxshi ko'rmayman", – degan ma'noga o'zgarib qolgan. Bu hol bir necha o'rinlarda takrorlanib kelgan. Birinchi nusxani 46 varog'ida hadisda kelgan "Siz ota-onangizni ham shafolat qilasizmi", – degan iboradagi "ota-onangiz" kalimasi o'rniga "Abu Bakrni ham" iborasi yozilganini ko'rish mumkin. Bu nusxa kitobni hammasini tashkil etmaydi. Balki nusxa ko'chiruvchi kotibni kitobning nihoyasida "Kitob to'liq holda nihoyasiga yetdi" degan so'ziga qaramasdan baribir yarmini tashkil qiladi. Zero u boshqa ikkala nusxalardagi kelgan hadislarni yarmi kelgan xolos [1.55].

Vajih Kamoliddin Zakiy qo'lyozma nusxa asarni ichki tavsifida Avvalgi asos nusxada yo'q bo'lgan farqlarni bayon qilsa, o'z navbatida bu ikkinchi tayanch nusxadagi kamchiliklarni ham keltirib o'tgan. Hamda nusxa ko'chiruvchilar tarafidan sodir etilgan ayrim juz'iy xatolarni ham boshqa nusxalarga solishtirib to'g'irlab to'ldirib ketgan.

Krish qismida: Bismillahir rohmanir rohim, ey Robbim bu kitobni tamomiga yetkazishimga O'zing meni muvaffaq qil. Zero men bunga faqat seni yo'llashing ila qodir bo'laman. Shayx, imom, zohid, obid Abu Bakr Abul Ishoq Kalobodiy Buxoriy aytadi:

"Bizga Abul Fazl Muhammad ibn Ahmad ibn Murdak aytib berdi: unga esa Muhammad ibn Iso Tursusiy aytib berdi unga esa, Yahyo ibn Ma'in va Ali ibn Bahr aytib berdi ularga Hisho ibn Yusuf aytib berdi Hishom ibn Yusuf Navfaliydan u kishi Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbosdan u kishi otalari Alidan va bobolaridan bobolari ibn Abbosdan, u aytdiki, Rosululloh (s.a.v.) aytdilar: "Alloh sizlarga berib qo'ygan in'om va ne'matlari uchun U zotni yaxshi ko'ring" [1. 105].

Qo'lyozma nusxaning xotimasi: Ammo, zolim insonni qilgan amali habata bo'lib o'chib ketmaydi, balki ko'plab gunohlarga jazolanish chog'ida qilgan yaxshi amallari tushib ketadi. Bundan ko'rinadiki, u insondan qasos olinadi. Natijada, qilgan yaxshi amallari sodir etgan jinoyatlari yuzasidan yo'q bo'lib ketadi yoki jinoyatlari ozayib solih amallari ziyoda bo'lishi mumkin. Natijada esa, jannatga kiradi. Agar jinoyatlari ziyoda bo'lsa, jahannamda sodir etgan jinoyatlariga muvofiq azoblanadi. Bunday bo'lsa jazosi yengil bo'ladi va do'zaxda azoblanish muddati oz bo'ladi. Agar yaxshi solih amallari bo'lmaganda jahannamda turishi uzoq bo'lib, undagi jazosi qattiq bo'lardi. Zero, Alloh bandalariga zarra miqdoricha zulm qilmaydi. Agar banda solih amallar qilgan bo'lsa ikki barobar qilib qo'shib beradi. Ham O'z huzuridan ulkan ajr mukofotlar in'om qiladi. Kitob to'liq holda nihoyasiga yetdi. Zero Alloh haq so'zni aytadigan va O'zi istagan bandasini to'g'ri yo'lga boshlovchi Zotdir. Ishlarning oqibati faqat Alloh uchundir. Odo-axloq hukmlarni bayoni borasidagi hadislar sharhini yozish 1011 hijriy yil safar oyining oxirlari, peshin namozining avvalgi vaqtida o'z nihoyasiga yetdi. Nusxa ko'chiruvchi Alloh rahmatidan umidvor kotib mudarris Murtazo ibn Yusuf ibn Muhammad ibn Ali Balaviy [1. 55-973].

Uchinchi nusxa arabiyqa qo'lyozmalar institutdagi nusxa bo'lib, 479 raqam ostida saqlanadi. Bu nusxaning nomi kitobning nomi "Maoniy axbor fi-l-hadis" deb nomlangan. Arabiyqa qo'lyozmalar institutida yana ikki nusxa bor bo'lib, ular:

- Bahra-l-favoid bi mashuri maoni-l-axbor" nomi ostida saqlanadi. U institutdagi qo'lyozmalar katalogiga 102-raqam ostida kiritib qo'yilgan. Bu nusxa Iskandariyya shahridagi Baladiyya kutubxonasining nusxasidan ko'chirilgan. Hamda u J 3179 – hadis bo'limi ostida saqlanadi. Bu nusxa tahqiq paytida suyanilgan va asos qilib olingan 2 nusxani o'zi.

- Arabiyqa qo'lyozmalar institutida "Maoniy axbori fi-l-hadis" nomi ostidagi 479 raqam ostida katalogga kiritilgan nusxa.

Mazkur nusxa ancha to'liq bo'lib, yuqorida zikr qilingan nusxadan xat-yozuv jihatidan farq qiladi. Shu bilan birga bu nusxani ustida yoki ichida biror-bir nusxadan ko'chirilganlik belgilari yo'q. Hamda makoni jihatidan ham farq qiladi. Zero bu nusxaning yozilgan yeri Suriyadagi Halaf shahridir. Mazkur nusxa Baladiyya kutubxonasining nusxasiga ko'chirish vaqtida bir-biriga muvofiq keladi, holbuki, ko'chirilgan vaqti 11 hijriy yilga to'g'ri keladi, shuning uchun ham uni uchinchi asos qilib olingan [1. 56].

Nusxaning tavsifi: Nusxaning tavsifi shuki, nusxaning xolati yaxshi saqlangan, lekin, yozuvlarining ko'rinishi eski hatto ba'zi betlarini o'qishning imkoni yo'q. Nusxa umumiy adadi 10 lavhaga yetadi. Nusxada eskirish alomatlar ta'mirtalab o'rinlari mavjud. Nusxa o'qiladigan yozuv turi bilan yozilgan bo'lib, nusxa ko'chiruvchisi ya'ni kotibi yozilmagan,

hamda ko'chirilgan vaqti va tugagan zamoni ham ko'rsatilmagan. Nusxa varaqlarining soni 283 varaq bo'lib, nusxa betidagi qatorlarining miqdori esa 23 qatorni tashkil etadi. Nusxa betining o'lchami 27x18 sm. Nusxaning g'ilofi to'liq saqlanmagan. Arabiyya qo'lyozmalar instituti qo'lyozmalar katalogidan g'ilofning noma'lumligini ochish, ko'rsatib berish mumkin bo'ladi. Ular quyidagicha: nusxa g'ilofining ustidagi kitobning ismi "Maoni-l-axbor fi-l-hadis" g'ilofning ustidagi mulallifning ismi esa Abu Bakr ibn Abu Ishoq Kalobodiy. Nusxani ko'chirish davri 11 asrga to'g'ri keldi. Nusxaning avvalida qo'shimcha izoh bo'lib, hadis va osor hikoya va kitob she'rlarining mundarijasini hosil qiladi. Uning varoqlari 17 varaq bo'lib, ularni Abu Abdulloh Muhammad tayyorlagan. Uni "Mafotihu maoniy axbor" deb nomlagan. Nusxaning ustida Halaf shahridagi Ahmadiyya madrasasi uchun vaqf deyilgan. Nusxaning xoshiyalarida izohlar bo'lib, ular nosix ya'ni kotib tomonidan kiritilgan. U izohlar hadis roviylarining nasablarining ba'zilarining bayonidan tashkil topgan. Bu bayonlar Sanoiyni "Ansob" kitobidan olinganini ko'rsatadi. Hamda u izohlarda hadis so'zlarni sharhlash ham bo'lib, u sharhlar "Kitabun nihaya fi g'aribu-l-hadis"dan olingini ochib beradi. Yana u nusxada tushib qolgan yerlar bo'lib, ularni xoshiya yozuvchi kotib sahih deb ishora qilib ketgan yoki boshqa nusxadan farqli o'rinlarda ularga "X" ishorasini qo'yish bilan oshkor qilib ketgan. Nusxa izohlarining ba'zisi nusxa ko'chiruvchi tomonidan ba'zi hadislarga ham izohlar kiritilgan. Masalan, "Allohning yo'lidagi g'ubor bilan jahannamdagi tutun jamlanmaydi", – deb aytilgan hadisda nosixning o'zi mulohaza qilganki: musannif bu hadisni "ochko'zlik bilan imon bandaning qalbida jamlanmaydi", – deb sharhlagan, deya mulohaza qilgan. Holbuki, ikkinchi qismini – hadisning davomini sharhlamagan. Mana shu ikkinchi qismini hoshiyada nosix izohini yozib ketgan. Shu bilan birga, xoshiyada kitob mavzularini bobma-bob qilib joylash ko'zga tashlanadi. Masalan, "Matlabun fi tahorat", "Matlabun fi solat" kabi. Undagi hadislarining joylashish tartibi "Doru-l-kutubu-l-Misriyya" va Iskandariyyadagi "Baladiyya" kutubxonasidagi nusxalaridagi hadislarining o'rinlaridan farq qiladi. Shuningdek, xoshiyada forscha ayrim izohlar ham bor. Qur'oniy oyatlar borasida xatolar kam uchraydi [1. 57].

Qo'lyozma nusxaning kirish qismi: Nusxaning kirish qismi, bismillahir rohmanir rohim bu boshlagan ishimizni xayrlik bilan tugatgin. Ey Robbim bu boshlagan ishimizni yaxshilik bilan tugatgin. Shayx, imom, zohid, obid Abu Bakr Abul Isoq Kalobodiy Buxoriy aytadi: Abul Fazl Muhammad ibn Ahmad ibn Murdak aytib berdi unga esa Muhammad ibn Iso Tursusiy aytib berdi unga Yahyo ibn Ma'in va Ali ibn Bahr aytib berdi ularga esa Hisho ibn Yusuf aytib berdi Hishom ibn Yusuf Navfaliydan u Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbosdan u otasi Alidan va bobolaridan, bobolari ibn Abbosdan hadis aytib, u ibn Abbos aytdiki, Rosululloh (s.a.v.): "Sizga bergan in'omlari uchun Allohni yaxshi ko'ring" [1. 973], – dedilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баҳр ал-фавоид. Абу Бакр Муҳаммад ибн Иброҳим ибн Яъқуб Калободий Бухорий (Важийҳ Камолиддин Закий таҳқиқи остида) 1 нашр. Қоҳира: 2007. –Б.51.
2. **Kalabodi, Abu Bakr.** *Bahr al-Favoid*. (Critical Edition). Published in Cairo, 2008 by Wahid Kamoliddin Zaki.
3. **Kamoliddin, Wahid.** "The History and Manuscript Copies of Bahr al-Favoid." *Journal of Islamic Studies and Manuscript Preservation*, Vol. 7, Issue 3, 2010.
4. **Hasan, Muhammad & Farid Mazidi.** *Bahr al-Favoid: A Critical Edition*. Beirut, 1999.
5. **Avvama, Shaykh Muhammad.** *Reflections on the Role of Bahr al-Favoid in Hadith Preservation*. Damascus, 2018.
6. **Salqin, Shaykh Muhammad.** *Studies in Early Islamic Literature and Hadith*. Damascus University Press, 1995.
7. **Sirojiddin, Shaykh Abdulloh.** *Hadith and Its Transmission in the Classical Period*. Beirut, 2003.
8. **Dora-s-Salom Publishers.** *The Preservation of Manuscripts: Focus on Bahr al-Favoid*. Cairo, 2010.
9. **Gulf Research Institute.** *Studies on Islamic Manuscripts and Preservation Techniques*. 2005.
10. **Zakiy, Vajih Kamoliddin.** *Manuscripts of Bahr al-Favoid in Global Libraries and Museums*. Cairo: Daro-l-Ulum al-Islamiyya Press, 2010.
11. **Mukhammadiyev, Sarvar U.** "The Role of Bahr al-Favoid in Islamic Scholarship and Hadith Preservation." *Journal of Islamic Studies*, Vol. 12, 2022.